

## ABU NASR FAROBIYNING PEDAGOGIK QARASHLARI

*Otaboyeva Norkumushbegim Jasurbek qizi  
UrDPI Pedagogika fakulteti talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada pedagogika sohasiga katta hissa qo'shgan olimlarimizdan biri bo'lmish Abu Nasr Farobiyning pedagogika sohasida bo'lajak pedagoglarga zarur bo'ladigan tavsiyalar bayon qilingan.

**Kalit so'zlar:** Abu Nasr Farobi, hokimning 12 ta xislati, o'qitish metodi, "Namunali ta'lim" risolasi, ta'lim va tarbiya

O'rta asr ijtimoiy-falsafiy fikr taraqqiyoti mutafakkir Abu Nasr Farobi nomi bilan bog'liq bo'lib, uning inson kamoloti haqidagi ta'limoti ta'lim-tarbiya sohasida katta ahamiyatga ega. Mashhur yunon faylasufi Arastudan keyin Sharqda o'z bilimi, fikr doirasining kengligi bilan nom chiqargan Farobiyni yirik mutafakkir - "Muallimi soniy"- "ikkinchi muallim" deb aytdilar.

**Abu Nasr Farobi** (to'liq ismi Abu Nasr Muhammad ibn Muhammad ibn Uzaliq ibn Tarxon al-Farobi) hijriy 260-yil (milodiy 873-yil)da Shosh-Toshkentga yaqin Forob (O'tror) degan joyda harbiy xizmatchi oilasida tug'ilgan. Forobda boshlang'ich ta'limni olgach, Shoshda, Buxoroda, Samarqandda ta'lim olganligi haqida ma'lumotlar bor.

Farobi tabiiy, ilmiy va ijtimoiy bilimlarning barcha sohalarida ilmiy ish olib borgan. Farobi o'zidan keyin juda boy ilmiy me'ros qoldirgan.

Farobi inson baxt-saodatga erishuvni uchun ularni baxtli-saodatli qila oladigan jamoa sardori bo'lishi kerak deydi. U fozil shahrni boshqaradigan hokim tabiatidan:

1. Sog'-salomat bo'lib, o'z vazifasini bajarishda hech qanday qiyinchilik sezmasligi;
2. Tabiatni nozik, farosatli;
3. Xotirasi mustahkam;
4. Zehni o'tkir;
5. O'z fikrini tushuntira oladigan notiq;
6. Bilim-ma'rifatga havasli;
7. Taom yeyishda, ichimlikda, ayollarga yaqinlik qilishda ochofat emas'aksincha o'zini tiya olishi;
8. Haq va haqiqatni, odil va haqgo'y odamlarni sevadigan, yolg'on va yolg'onchilarni yomon ko'radigan;
9. O'z qadrini biluvchi va oriyatli bo'lishi;
10. Mol dunyo ketidan quvmaydigan;
11. Adolatparvar;

12. Qat'iyatli,sabotli,jur'atli bo'lishi muhimligini qayt etadi.

Abu Nasr Farobi o'qitish metodlarining tasnifini ishlab chiqqan. Ularni amaliy va nazariy metodlarga ajratgan,shu tariqa o'qitishning amaliy yo'nalishi va kishilarning hayoti hamda kundalik faoliyat bilan bog'liqligi g'oyalarini ilgari surgan. Olim o'qitishning tajriba-ko'rsatmali,induktiv va deduktiv amaliy metodlariga alohida e'tibor bergen.

Farobiyning "Namunali ta'lism" risolasida ta'lism oluvchilar o'zlashtirishi lozim bo'lgan materialni yaxshi yo'sinda bayon qilish masalasiga alohida to'xtalib,o'qitishning ikkita turini yangi prinsipini tavsiya etgan: ularning biri bevosita sezgi,ikkinchisi aql bilan bog'liqdir. U o'zining fikrini shunday talqin etadi: "Narsalar bizdan,hislarimizdan tashqarida turib, bizning sezgi a'zolarimizga ta'sir etadi,ta'sir etadigan narsalar cheksizdir.

Inson o'zining aqlini,xayolini ishga soladi va shular vositasida bilmagan narsalarini bilib oladi,ularga asoslanib bilish manbai bo'lgan ola, va uning mohiyati haqida chuqurroq, atrofliroq bilim va mohiyatlarga ega bo'ladi. U fikrni davom ettirib: "... avval bilim zarur bo'lgan ilm o'rganiladi,bu – olam asoslari haqidagi ilmdir. Jismlar tuzilishini,shaklini, osmon haqidagi bilimlarni o'rganish lozim. Undan so'ng umuman,jonli tabiat o'simlik va hayvonlar haqida ilm o'rganiladi."

Yuqoridagilardan tashqadi Farobiyning "Baxt-saodatga erishuv to'g'risida" nomli risolasida ta'lism-tarbiya birligi haqida fikr yuritar ekan,unda ta;lism berish oddiydan murakkabga,quyidan yuqoriga borishi lozimligini ko'rsatadi. Farobi insonning ma'naviy olamida,uning ikki tomoniga: aqli va axloqini tarbiyalashga asosiy e'tiborni qaratadi. Ta'lism va tarbiya Farobi fikricha, insonni aqlan va axloqan komil shaxs qilib shakllantirishga qaratilmog'I kerak. Xuddi shuning uchun ham,ta'lism-tarbiyaning asosiy vazifasi olam va insonlar haqida mustaqil fikrlash qobiliyatiga ega bo'lgan barkamol avlodni tarbiyalab voyaga yetkazishdir.

Farobi ta'lism va tarbiya ishini boshlashdan oldin tarbiyalanuvchilarning shaxsiy hislarini bilish va ta'lism-tarbiya berish jarayonida murabbiyning barkamolligini nazarda tutish zarurligini ko'rsatadi. Chunonchi,uning fikricha,murabbiy xohish-ixtiyor,iroda,qobiliyat,yaxshilik va yomonlik nima ekanligini yaxshi bilgan odam bo'lishi zarur.Farobi fikrlash faoliyatini faollashtirishning didaktik tamoyillari va metodlarini asoslab bergen.

Xulosa qilib aytganda, Farobi pedagogik ta'lismotining asosida komil insonni shakllantirish, insonni o'z mohiyati bilan ijtimoiy,ya'ni faqat jamiyatda,o'zaro munosabatlar jarayonida komillikka erishadi,degan falsafiy qarash yotadi.

**Foydalilanilgan adabiyotlar:**

1. N. Atayeva, M. Salayeva, S. Hasanov. Umumiy pedagogika (Pedagogika nazaryasi va amaliyoti asoslari). O‘quv qo‘llanma. II kitob. –T.: “Fan va rexnalogiya”, 2015, 800 bet.
2. Sharifzoda, S.O‘., Xudoynazarov, E.M. Pedagogika nazaryasi va tarixi (II-qism) [Matn] : darslik / S.O‘. Sharifzoda, E.M. Xudoynazarov. – Toshkent: Bookmany print, 2022.-286 b.
3. Salayeva M.S Umumiy pedagogika [Matn] : darslik /M.S Salayeva. – Toshkent: Nodirabegim, 2021. – 592 b.